

**INGLIZ ADABIYOTSHUNOSLIDGIA TEMUR OBRAZI  
YORITILISH USLUBLARI**

**Yaxshiyeva Zebo Rashidovna**  
*TATU Qarshi filiali dotsenti,  
Filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD  
E-mail: [zebona.sevinch@gmail.com](mailto:zebona.sevinch@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada XVI asr ingliz dramaturgiyasi toji bo'lgan Kristafor Marlouning "Buyuk Temur" tragediyasining yozilish uslublari va sabablari haqida ilmiy o'rganilgan. Shuningdek, bu asar sharq manbalari bilan tahliliy qiyosiy dalillari asosida solishtirilgan va Temur obraziga singdirilgan muallif qarashlari ilmiy asoslangan.*

***Kalit so'zlar:** K.Marlou, drama, Temuriynoma, Temur tuzuklari, Amir Temur, sentimentalism*

***Abstract:** In this article compared styles and reasons for the tragedy "The Great Timur" by Christopher Marlowe, The Crown Prince of 16th-century English dramaturgy. The work also scientifically based on the author's views, which are compared with Eastern sources based on their analytical comparative arguments, and are embedded in the image of Timur.*

***Keywords:** K. Marlowe, drama, Timuriynoma, Timur's laws, Amir Temur, sentimentalism*

Ijodkordan tarixiy shaxslarni badiiy asarlarga obraz sifatida kiritish masalasi o'rganilar ekan, Amir Temur shaxsini turli davrlarda, turli qarashlar va maqsadlarga ega adiblar va tarixchilar tomonidan qayta kashf etilishi yoki tadqiq etilishi ko'zga tashlanadi. Bu asarlarning ba'zilar Amir Temur davri va shaxsiyati, uning yashash tarsi va umr mazmuni haqida ishonchli sanalgan sharq manbalari va "Temur tuzuklari" ga asoslanib yozilgan bo'lsa, aksariyat g'arb manbalari faqatgina to'qima obraz hamda turk va uyg'urlarning og'zagi ijod namunalariga asoslanib yozilgan. Xususan, XVI asr ingliz adabiyoti umumevropa gumanistik madaniyati ta'siridasi uning sermahsul bo'laklaridan biri edi. Ingliz gumanizmi o'z o'rnida o'yg'onish davri g'oyaviy qarashlarini o'zlashtirdi, cherkovning g'oyaviy zo'ravonligiga qarshi kurashish yo'llarini o'rgandi. Shu asnodda yozma ijod namunalarida jismoniy va ma'naviy komil inson ideali, real tashqi dunoning go'zalligining va inson kechinmalari murakkab dunyosining san'at tomonidan kashf etilishi, antik dunyo madaniyati turli qirralarining chuqur egallanishi ta'siri sezildi. Umumgumanizmning yana bir qirrasini bo'lgan tarixda yashab, o'z qudrati bilan insoniyat aqlini shoshirgan kuchli shaxs o'tmishi va uni obraz sifatida asarlarga kiritishga xayrixohlik ham gumanizmga hos edi [O. Dadajonov, 2019; 45]. Ularning insoniyat haqidagi

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

tushunchalari cheksiz va sinalmagan imkoniyat va kuch qudrati ila tengsiz alohida shaxs bilan bog'liq edi.

XVI asr Ingliz adabiyoti va dramaturgiya sohasi ham gumanizm muhiti ta'sirida favqulodda va keskin vaziyatlarga, otashin va kuchli harakter qirralariga hamda his to'yg'ulariga to'la nutqli sahnalarga ehtiyojmand edi. Bu xususiyatlar jahon ilmida drama sohasi bilimdonlaridan biri I.D.Tamarchenko ta'biri bilan aytganda: *“dramaning janr xususiyatlariga ega umumiy belgilari bir qonuniy jarayon va hodisa ekanini ko'rsatadi, ularni bir tizim sig'fatida baholash va shu nuqtai nazardan tavsiflash qahramon nutqining emotsialligini, buyoqdorligini ko'rsatish bilan birga dramaning janr sifatida shakllanish jarayonini ham dalillaydi”* [Тамарченко А.Д, 2000;72].

Davrlar almashunivi natijasida adabiyot va san'atda, xususan daramada ham bunday o'zgarishlar aks etishi lozim edi. Boiski, estetik o'zgarishlar shunday ehtiyojlardan kelib chiqadi. M.M.Baxtin ta'biri bilan aytganda: *“estetik faoliyat faqat “san'atda o'zini namoyon etadi”* [М.М. Бахтин, 2009;544].

Mana shunday o'zgarishlarni o'z asarlarida singdira olgan, Renessans g'oyalari purma'no obrazlarida talqin qilingan, o'z dramalrida insonning yaratuvchilik qudratini tarannum etgan Ingliz shoiri Kristafor Marlou ham *“powerful tragedy”* (qudratli fojea) janri uchun *“Tamburlaine the great”* (Buyuk Temur) dramasi bilan Amir Temur tarixiy shaxsini prototip sifatida tanladi. Garchi drama bosh qahramoni salbiy obraz sifatida talqin qilinsa-da, buning sababini oydinlashtirish asnosida, ushbu maqolamizda bir necha uslublari va jihatlarini o'rganib chiqishni ma'qul ko'rdik.

1. Barcha ijodkorlar singari K.Marlou ham o'zi yashagan davrning, makon va zamonning muammolarini o'z asarining bosh qahramoni orqali yoritib berishni maqsad qilgan. Shu bois, K.Marlou va unga zamondosh yozuvchilar ham Ingliz olimi Kelli Maykl fikri bilan aytganda *“asarlar tarixiylikni o'ziga singdirish jihatdan juda ham muhim, chunki bu asarlar ommaviy sahnalar orqali o'z zamonasining ayanchli siyosiy va ijtimoiy voqealarini ifodalagan edi”* [Kelly, Michael J, 2008; 5].

2. K.Marlou siyosiy qarama qarshiliklar avjiga chiqan bir davrda yashab ijod qildi. Uning bolalik davrlarida Angliya iqtisodiy va siyosiy tanazzulga uchragan davrlarga to'g'ri keldi. Bu esa bo'lajak yozuvchi dunyoqarashi shakllanishida va ijodda o'z yo'lini topishda katta ta'sir etdi. Shu bois, u o'z asarlarida ilgari surgan eng katta va dolzarb mavzu monarxiya va monarxlar masalasi bo'lib, yozuvchi asarlariga bosh qahramon qilib olgan qudratli shaxslarga ularning xarakterini singdirishga harakat qildi. Bu orqali u

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

bilvosita o'zi yashayotgan davrning eskirgan aqida va g'oyalariga qarshi chiqdi. Bu vaqt Angliyada ierarxiya dunyosi inqirozga yuz tutayotgan, qirollar ilohiy majburiyatlardan bo'yin tovlayotgan holda o'z qirollik imtiyoz va imkoniyatlarini saqlab qolishga intilishga kirishgan davrlar edi. Bu orqali jamiyatning mutloq monarxiyaga ishonchi yo'qolib, ommaviy e'tirozlar bildirilishi boshlangan pallalar edi. Ilgarilari, qirollarni ilohiylikka daxldor deb hisoblagan va ularning ayb-nuqsonlari haqida so'z ochishga hayiqqan xalq ularning turmush tarzi va xatto yurish turishlari haqida muhokamalar qila boshlashdi. Mana shunday sharoitda Marlouga qirollar va monarxiya haqida ochiqroq fikr ayta olish uchun ularga mos mavqeidagi shaxs kerak edi.

3. Amir Temurning Sulton Yeldirim Boyazid ustidan qozongan g'alabasi tufayli u Evropa e'tiboriga tushgan edi. Shu bois, Marlou asarlari orqali Temur o'yg'onish davri Evropa istak va xohish, iroda qudrati razmiga aylangan edi. Aynan bu K.Marlouning o'zi yashayotgan jamiyatning ojiz tomonlarini tasvirlash uchun ekzotik nomlardan, xususan Temur "Tambirlaine" obrazidan prototip sifatida foydalanishiga turtki bo'ldi. Dunyo temurshunoslaridan biri Biatris Forbes ta'kidlaganidek: "*Uni adabiyotda g'ayri tabiiy kuch- qudrat va iroda egasi sifatida tasvirlay boshladilar*" [Manz, Beatrice Forbes, 2008; 5]. Shu ma'noda Marlou ham o'zini qiynayotgan ko'plab ijtimoiy savollarga ana shu sharqlik hukmdor siyomosida javob topa oldi. Demak, ushbu asar tarixiy shaxs Amir Temurning fothlik yurishlari haqida emas, balki, XVI asr Angliya monarxiyasining zaifliklarini, ziddiyatlarini yoritishga bag'ishlangan asar edi. Ijodkor bosh qahramon siyomosida o'z davri qirollarining kamchilik va nuqsonlarin ko'rsatishda, uquvsiz qirollardan Buyuk Temurning ustunligini ko'rsatib berishga harakat qildi.

4. O'rta asrlarda Ingliz diyorida qirollar Xudoning xohish irodasi bilan ilohiy boshqaruv huquqiga ega bo'lganmiz deb davo qilishgan bir davrda, K Marlou "Buyuk Temur" dramasi orqali qirollarning hech bir ilohiylikka daxldor emasliklarini ko'rsatib berdi. "*Temur dunyosida qirollar o'z kuch qudratlari bilangina taxtga erishadilar. Ular o'zgalardan kuch-qudrati ko'proq insonlargina xolos. Insonning qudrati oshsa u qirol bo'lishi mumkin, toji taxtning ilohiylikka hech qanday daxli yo'q*" [Beal, Nathaniel, 2008]. Ayniqsa, asarda Temur: toju taxtni men jang ila oldim, degan fikri orqali muallif toji taxtni ilohiylashtirgan XVI asr Angliya aqidalarini tamomila rad eta oldi. Toji taxtning omonatligiga ramzlar orqali ishora etdi. Amerikalik Jastin Marozzi Marlou o'z dramasi orqali Angliyadagi vaziyatni tasvirlaganiga shubha qilmaydi: "*Pyesani qirollik hukumati va mutloq monarxiya tartiblari ustidan masxaralash deb qabul*

**RAUF PARFI IJODINING  
MA'NAVIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

*qilish mumkin*” [Jastin Marozzi, 2006; 66]. Shoir o‘z dramasiidagi qahramonlar xarakterlarini sahna asarlariga xos bo‘lgan uslub dialoglar orqali ochib berar ekan, o‘z davri qirollari gap so‘zlari ma‘no mantiqdan yiroq ekanligini bosh qahramon tilidan ifoda etadi:

*Tamburlaine: I would entreated you to speak but three wise words. (P.I, Act.I, sc.4)*

*Ma‘nosi: So‘zla deb yolvorgum, lek uch og‘iz bo‘lsa-da ma‘nili jumla so‘ylagin faqat. (Z.Y)*

Qahramonlarning o‘zaro harakter tafovutarini ochib berishda dialogdan foydalanish Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasiida ham bosh mezon sanaladi:

*Amir Husayn: Taqdirga la‘nat!*

*Tiriklayin seni iblisga ro‘baro‘ qildi.*

*Temur: Axir men ham tobemasmi o‘sha taqdirga*

*Umringda hech kitob ko‘rmay ulg‘aygan eding*

*Shu bois ham gaplaringda mantiq yo‘q, amir! [A. Oripov, 2016;130]*

Qahramonlarning o‘zaro ziddiyatlari orqali Temur harakterini ijobiy tomonlarini ochib berish Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” [Salohiddin Toshkandiy, 1990; 351] jangnoma asarida ham uchraydi. Asarda Baroqxon Temurning aksi. U tajovuz qilishga va zulmga o‘ch riyokor shaxs. U bir necha bor Temurga hiyonat qiladi, nomardlarcha ish tutadi, ammo shunga qaramay Temur uni kechiradi va qo‘llab quvvatlaydi. Amir Temurning harbiy sohadagi uddaburonligi aql va jasurlikning mutanosibligida ko‘rinadi, u hech kim jur‘at qila olmagan ishlarga jazm qiladi.

Tarixiy voqeilik va tarixiy dalillar o‘rtasidagi mutanosiblik hamda badiiy asalarga ularning ko‘chirilishi hamda ushbu asarlardagi Amir Temur haqidagi og‘zaki ma‘lumotlarning asosiy o‘rin egallashi badiiy asar yaratish qonuniyatlarini inkor qilmaydi, balki ijodkorlarning maqsad va niyatlarini to‘laqonli yuzaga chiqishiga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

**RAUF PARFI IJODINING**  
**MA'NAViy-MA'RIFIY AHAMIYATI**  
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O. Dadajonov. G'arb va sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini. Filol.fan.fal.dok.diss.2019.45-56 betlar.
2. Тамарченко А.Д. Точка зрения героя и авторская позиция в структуре драмы.// Филологические записки. Воронеж. 2000.№ 15. – 72 с.
3. М.М. Бахтин. Творчество и народная культура средневековья и Ренессанса. – Москва. Х. Л. 1990. 544 с.
4. Kelly, Michael J. Christopher Marlowe and Golden age of England. The Marlowe society research journal.№ 5, 2008.
5. Manz, Beatrice Forbes. “Tamerlane’s career and its uses”, journal of world history.13, №1. (2002), 1-25.
6. Beal, Nathaniel. “Let us march against the fires of heaven”. Tamburlaine, Marlowe and Atheism. 2008.
7. Jastin Marozzi. Tamerlane. Sword of Islam. Conqueror of the world. HarperCollins. 2005. 66 p.
- A. Oripov. Sohibqiron (she'riy drama). T.: Akademnashr. 2016. 130 b
8. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. Nashrga tay. so'zboshi va lug'at muallifi Poyon Ravshanov. T.: 1990.-351b.